



USA

INTERNATIONAL SCIENTIFIC
ONLINE CONFERENCE

INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM



ISOC
INTERNATIONAL
SCIENTIFIC
ONLINE
CONFERENCES



25 MAY
2025 YEAR

USA, WASHINGTON

Info.interconf@mail.ru

www.interonconf.org



INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM

Part 52

MAY 2025

COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS

Washington, USA
25th May 2025

INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM: a collection scientific works of the International scientific conference (25th MAY , 2025) – Washington, USA: "CESS", 2025. Part 52 – 369p.

Editorial board:

Martha Merrill, PhD Kent State University, USA

David Pearce, ScD Washington, D.C., USA

Emma Sabzalieva, PhD Toronto, Canada

Nikadambayeva Hilola Batirovna, Candidate of Pedagogical Sciences,
docent

Pirimov Akram Pirimovich, docent

Shodiyev Furqat Davranovich, Candidate of Technical Sciences, docent

Languages of publication: русский, english, казахша, o'zbek, limba română,
кыргыз тили, Azərbaycan

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference "**INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM**". Which took place in Washington on May 25, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

© "CESS", 2025
© Authors, 2025

TABLE OF CONTENTS	
Rayimqulov Firdavs Azimjon o'g'li Abdumannonova Muborakxon Abdupulat qizi Mansurova Dilorom Aslonovna ORQA MIYA VA UNING QOBIQ QATLAMLARI: MORFOLOGIK TAHLIL	13
Khakimjonova Kamolakhon Rasul YENİ TEKNOLOJİLER ÇAĞINDA GELİŞEN MODERN DİŞ HEKİMLİĞİNİN İŞGÜCÜ PİYASASIYLA ENTEGRASYONU	17
Ботиров Ж.Э MECHANISMS OF FINANCIAL REGULATION OF INTEGRATION PROCESSES	22
Aliqulov Abdujabbor Maxamadi o'g'li KORVERGENT TAHRIRIYATLARDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR, YECHIM VA GIPOTEZALAR.	28
Xojamurotova Jasmina Tursinbaeva Munisa Davlatova Aziza Jumabaeva Mashhura "SCINTILLYACÍYALÍQ SCHETCHIKTÍN JÁRDEMINDE GAMMA NURLANÍWDÍN ENERGIYASÍN ANÍQLAW" LABORATORIYA JUMÍSÍNDÁ SPEKTR SÍZÍQLARÍN KALIBROVKALAWDÍ ÚYRENIW	31
Madrimova Nargiza Sharifbayevna ANALYSIS OF DEVELOPMENT INDICATORS OF ONLINE TRADE IN UZBEKISTAN	36
Madrimova Nargiza Sharifbayevna Fayzullayev J. S ONLAYN SAVDO PLATFORMALARIDA YUZAGA KELAYOTGAN TOVLAMACHILIKLAR VA ULARGA QARSHI OPTIMAL YECHIMLAR TAHLILI	45
Mashhura Jo'raqulova "THE COVERAGE OF CLIMATE CHANGE IN THE MEDIA"	54
Muzaffarova Iroda A CROSS-LINGUISTIC EXPLORATION OF CONCEPT IN ENGLISH AND UZBEK"	58
Tursunova Madinabonu Rustamjon qizi Tursunova Muattarxon Muzaffar qizi Yusupova Raximaxon Alijanovna	63

TEMIR TANQISLIGI ANEMIYASI	
Farangiz Izzatullayeva “WHAT I LEARNED ABOUT HIGHER EDUCATION WHILE STUDYING ABROAD: A STUDENT’S PERSPECTIVE FROM UZSWLU TO WILSON COLLEGE”	66
Mamazoyitova Robiyaxon COMPARATIVE STUDY OF STYLISTIC DEVICES IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES	70
Tursunaliyeva Moxira LINGO ASSOCIATIVE UNITS AND THE THEORY OF “FIELD” IN LINGUISTICS	74
Zokirova Mubina Rustamovna Mamadjanova Dildora Ulugbekovna BACK FORMATION IN ENGLISH: HOW NEW VERBS LIKE “EDIT” EMERGE	78
Mirzayeva Sabrina Mamadjanova Dildora Ulugbekovna THE ROLE OF INTONATION IN EXPRESSING EMOTION IN ENGLISH SPEECH	81
Qudratillayeva Madina Mamadjanova Dildora Ulugbekovna HOW POLYSEMY CHALLENGES ENGLISH LEARNERS: A LOOK AT COMMON EXAMPLES	84
Maksudova Mukhlisa Mamadjanova Dildora COMPOUNDING IN ENGLISH: FROM LAPTOP TO BINGE-WATCH	87
Zakirova Sabina JADIDLAR: MILLIY UYG‘ONISH HARAKATI VA UNING TARIXI	89
Mukhitdinova Munisa Mamadjanova Dildora Ulugbek kizi THE USE OF FILLER AND HEDGES IN SPOKEN ENGLISH: PRAGMATIC FUNCTIONS	91
Jonobilova Zulhumor Mamadjanova Dildora Ulugbek kizi IDIOMS AND NON-LITERAL MEANING: A SEMANTIC PUZZLE FOR NON-NATIVES	94
Muhammadsobirova Gulchehra	96

Mamadjonova Dildora Ulug'bekovna WHY ENGLISH LEARNERS STRUGGLE WITH SUBJECT-VERB AGREEMENT	
Abduqayumova Soliha Islomova Farida Komiljonovna Mamadjanova Dildora Ulugbekovna WORD ORDER VARIATION IN QUESTIONS AND STATEMENTS: A SYNTAX PERSPECTIVE	98
Рамазанов Шохрух Шохназарович РУССКАЯ ЛИТЕРАТУРНАЯ КРИТИКА XIX ВЕКА КАК ИСТОЧНИК ПОЭТИКИ ВРЕМЕНИ.	100
Аманов Ф.Б Мавланов Л.Б НЕКОТОРЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ СЕЛЕКЦИИ ЛЬНА МАСЛИЧНОГО ДЛЯ БОГАРЫ УЗБЕКИСТАНА	103
Dildora Anvarova Anvarovna ISSUES OF SOCIAL PROTECTION OF MATERNITY IN UZBEKISTAN	106
Ablaqulova Safina Qobiljon qizi Egamberdiyeva Marjona Xusniddin qizi HESPERIDIN CITRUS MEVALARDAGI BIOFLAVONOID	111
Madaminova Ruhshona Ma'murjon qizi VODOROD ENERGIYASINING RIVOJLANISHI. ENERGETIKA SANOATINING KELAJAKDAGI RIVOJLANISHIDA VODORODNING ROLI.	114
Giyazova Nozima Bayazovna Ibragimova Sabina Akmal qizi INTERNET NARSALAR (IOT) VA UNING RAQAMLI IQTISODIYOTGA TA'SIRI	118
Giyazova Nozima Bayazovna Nabiyeva Ruxshona Sobir qizi KIBERXAVFSIZLIK VA RAQAMLI IQTISODIYOTDA XAVLARNI BOSHQARISH	125
Giyazova Nozima Bayazovna Saidova Mexrangiz Rustamovna RAQAMLI MEHNAT BOZORI VA MASOFAVIY ISHLASH	134
Kayumova Muyassar Urinbayevna METHODS OF FORMING B1 LEVEL PUPILS' LISTENING COMPETENCE IN ENGLISH CLASSES.	142

INTERNET NARSALAR (IOT) VA UNING RAQAMLI IQTISODIYOTGA TA'SIRI

Giyazova Nozima Bayazovna

Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakul'teti Iqtisodiyot kafedrası dotsenti, i.f.f.d (PhD)

Ibragimova Sabina Akmal qizi

Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy iqtisodiyotda muhim o'rin egallayotgan Internet narsalar (IoT) texnologiyasining raqamli iqtisodiyot rivojlanishiga ko'rsatayotgan ta'siri tahlil qilingan. IoT texnologiyalari ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqa sohalarda avtomatlashtirish, real vaqt rejimida monitoring qilish, ma'lumotlar asosida tezkor va samarali qaror qabul qilish imkonini yaratmoqda. Internet narsalar joriy etilishi orqali resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, xarajatlarni qisqartirish va xizmat sifati yaxshilanishi kabi ijobiy iqtisodiy natijalar kuzatilmoqda.

Kalit so'zlar: Internet narsalar, raqamli iqtisodiyot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, sanoat, industry 4.0, aqlli qurilmalar, avtomatlashtirish.

Abstract: This article analyzes the impact of the Internet of Things (IoT) technology, which plays an important role in the modern economy, on the development of the digital economy. IoT technologies enable automation, real-time monitoring, and fast and effective decision-making based on data in production, service provision, and other sectors. The introduction of the Internet of Things has led to positive economic results, such as increased resource efficiency, cost reduction, and improved service quality.

Keywords: Internet of Things, digital economy, information and communication technologies, production, service, digital transformation, smart devices, automation, globalization.

So'nggi yillarda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi bilan bir qatorda, uning ajralmas qismi bo'lgan Internet narsalar (IoT) texnologiyalari global iqtisodiy va ijtimoiy muhitda sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda.

Ushbu texnologiyalar iqtisodiy jarayonlarni avtomatlashtirish va optimallashtirishda, shuningdek, zamonaviy raqobatbardosh va innovatsion iqtisodiyot shakllanishida asosiy omil sifatida namoyon bo'layapti.

Ushbu maqolada Internet narsalar texnologiyasining raqamli iqtisodiyot shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni, uning iqtisodiy samaralari, hamda kelajakdagi rivojlanish istiqbollari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, IoT texnologiyalarining turli sohalarda qo'llanilishining aniq misollari orqali uning amaliy ahamiyati ko'rsatib beriladi.


Bugungi globallashuv jarayonida texnologik taraqqiyot iqtisodiy faoliyatning barcha sohalariga kirib borib, ular samaradorligini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Xususan, Internet narsalar (IoT) texnologiyasi raqamli iqtisodiyotning zamonaviy infratuzilmasida asosiy o'rinni egallab, turli sohalarda — sanoat, transport, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish tizimlarida keng qo'llanilmoqda. IoT texnologiyalari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish, inson ishtirokini qisqartirish hamda mahsuldorlikni

oshirish orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi. Masalan, "aqlli ishlab chiqarish" konsepsiyasi zavod va fabrikalardagi ishlab chiqarish jarayonlarini sun'iy intellekt va tarmoqqa ulangan sensorlar yordamida avtomatlashtirish imkonini beradi.

XXI asrda raqamli texnologiyalar global iqtisodiyotni tubdan o'zgartirib, yangi imkoniyatlar yaratmoqda. O'zbekistonda ham raqamli transformatsiya jarayonlari izchil amalga oshirilmoqda. 2025 yilga kelib, mamlakatda IoT bozorining hajmi 802 million AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu ko'rsatkich IoT texnologiyalarining iqtisodiyotdagi ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi. Avtomobil sanoati bu o'sishni qo'llab-quvvatlovchi asosiy soha bo'lishi kutilmoqda va taxminan 213,7 million dollar bozor qiymatiga hissa qo'shadi. Umumiy IoT bozori 2025-2029 yillarda yillik o'sish sur'ati 7,94% ni tashkil etadi va 2029 yilga kelib 1,089 milliard dollarga yetishi prognoz qilinmoqda¹². Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi O'zbekistonda turli sohalarda sezilarli o'zgarishlarga olib kelmoqda.

Qishloq xo'jaligi sohasida Internet buyumlari (IoT) texnologiyalari jadal rivojlanmoqda va bu texnologiyalar dehqonchilikning samaradorligini oshirish, resurslarni tejash va barqaror ishlab chiqarishni ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda.



1-rasm. O'zbekiston qishloq xo'jaligi sohasida IoT texnologiyalaridan foydalanishning yillik o'sish ko'rsatkichi.¹³

2021-yildan 2024-yilgacha O'zbekistonning qishloq xo'jaligida Internet narsalari texnologiyalaridan foydalanish darajasi foizda ifodalangan. 2018-yilda bu ko'rsatkich atigi 5% ni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 45% ga yetdi. Bu o'sish qishloq xo'jaligida raqamli transformatsiya va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq. (1-rasm)


IoT texnologiyalari orqali to'plangan ma'lumotlar, masalan, tuproq namligi, ob-havo sharoitlari va ekinlarning holatini kuzatish imkoniyatlari fermerlarga aniq qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Bunga misol qilib UzAgroTech — O'zbekistonda qishloq xo'jaligida yuqori texnologiyalarni joriy etishga yo'naltirilgan korxonani keltirish mumkin. UzAgroTech kompaniyasi IoT texnologiyalarini qo'llash orqali fermerlarga o'z ekinlarini samarali boshqarish imkoniyatini taqdim etadi. Kompaniya tuproqni tahlil qilish, ekinlarni monitoring qilish va sug'orish tizimlarini optimallashtirish uchun IoT qurilmalarini ishlab

¹² Statista. (2024). Uzbekistan IoT Market Size Forecast 2025. <https://www.statista.com>

¹³ Statista. (2024). Uzbekistan IoT Market Size Forecast 2025. Retrieved from

chiqadi. UzAgroTech mahsuldorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirish orqali qishloq xo'jaligi sohasida ilg'or innovatsiyalarni joriy etmoqda. Masalan, o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga eng mos bo'lgan harorat va namlik darajasini internet buyumlarini qo'llash orqali 2019 yil qishloq xo'jaligida hosildorlikni 15-20% gacha oshganini ko'rish mumkin.¹⁴ Bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va resurslardan samarali foydalanishga olib keladi. Bundan tashqari, avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida o'simliklarga pestitsidlar yoki o'g'itlar aniqlangan miqdorda va faqat zarur bo'lgan joylarga to'g'ri ravishda tarqatiladi. Bu esa kimyoviy moddalar miqdorini kamaytirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga yordam beradi.

Sog'liqni saqlash sohasida IoT texnologiyalarining rivojlanishi va qo'llanilishi tibbiyot tizimini tubdan o'zgartirib yubordi. Internet narsalar (IoT) asosan turli xil qurilmalar va sensorlarning o'zaro bog'lanishini ta'minlaydi va ular yordamida real vaqt rejimida ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va uzatish imkonini yaratadi. IoT texnologiyalari bemorlarning salomatligini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyatini beradi. Buning uchun tibbiy qurilmalar, masalan, yurak urishini, qon bosimini, tana haroratini va boshqa jismoniy parametrlarni o'lchaydigan sensorlar ishlatiladi. Bu qurilmalar bemorning holatini doimiy ravishda tahlil qilib, ma'lumotlarni shifokorlarga yoki maxsus dasturiy ta'minotga uzatadi. Misol sifatida, yurak ritmi va qon bosimi kabi parametrlarni o'lchovchi IoT qurilmalari mavjud bo'lib, ular bemorning holatini muntazam ravishda tahlil qilish va ogohlantirish tizimlari orqali tezda javob berish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, yurak kasalliklari bilan og'rigan bemorlar uchun muhimdir, chunki ular uchun kasallikning oldini olish va unga tezkor javob berish hayot-mamot masalasini hal qilishi mumkin.



2-rasm. O'zbekiston sog'liqni saqlash sohasida raqamli texnologiyalar joriy etilishining ko'rsatkichlari¹⁵

IoT texnologiyalarining sog'liqni saqlash sohasida qo'llanilishi jadal rivojlanmoqda. Global IoT tibbiy asbob-uskunalar bozorining 2020 yildan 2025 yilgacha 26,8 milliard dollardan 54,5 milliard dollargacha o'sishi prognoz qilinmoqda¹⁶. O'zbekistonda ham IoT texnologiyalari sog'liqni saqlash tizimida faol qo'llanilib, 2018-yildan 2024-yilgacha sezilarli

¹⁴ Grand View Research. <https://www.grandviewresearch.com/>

¹⁵ Statista. (2024). Uzbekistan IoT Market Size Forecast 2025. Retrieved from


¹⁶ MarketsandMarkets. "IoT Medical Devices Market by Product, Type, Connectivity Technology, End User — Global Forecast to 2025." MarketsandMarkets, 2020.

darajada oshdi. Ushbu davr mobaynida IoT texnologiyalaridan foydalanish darajasi 3% dan 42% ga yetdi. Bu o'sish sog'liqni saqlash tizimining raqamlashtirilishi, tibbiy xizmatlarning avtomatlashtirilishi va masofaviy sog'liqni saqlash xizmatlariga bo'lgan talabning ortishi bilan bog'liq. (2-rasm)

Sanoat sohasida internet narsalar (IoT) texnologiyalari inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. IoT ishlab chiqarish sohasida Industry 4.0 kontseptsiyasining asosi hisoblanadi.

Ular ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, real vaqt rejimida monitoring qilish, resurslardan samarali foydalanish va mahsulot sifatini oshirish imkonini beradi. An'anaviy ishlab chiqarish tizimlarida ma'lumotlar ko'pincha qo'lda yig'iladi, bu esa inson xatoliklariga olib kelishi mumkin. IoT qurilmalari yordamida esa ma'lumotlar avtomatik ravishda va real vaqt rejimida yig'iladi, bu esa tahlil uchun aniq va ishonchli ma'lumotlar bazasini yaratadi. Bundan tashqari aqlli sensorlar va qurilmalar yordamida uskunalarining ishlash holati doimiy kuzatib boriladi, bu esa nosozliklarni oldindan aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi.

O'zbekistonda IoT texnologiyalarini sanoat sohasida joriy etish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, Telemetry kompaniyasi sanoat avtomatizatsiyasi va IoT yechimlarini ishlab chiqish va joriy etish bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari, O'zbekistonda IoT texnologiyalari bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar soni ortib bormoqda. Masalan, Mimosoft kompaniyasi IoT yechimlarini ishlab chiqish va joriy etish bilan shug'ullanadi. Shuningdek, O'zbekiston hukumati tomonidan sanoat sohasini raqamlashtirish va IoT texnologiyalarini joriy etish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqilmoqda. Masalan, "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida sanoat tarmoqlarini raqamlashtirish va IoT texnologiyalarini joriy etish rejalashtirilgan.¹⁷



3-rasm. IoT texnologiyalarining O'zbekiston sanoat sohasiga integratsiya jarayoni.¹⁸

O'zbekistonda sanoatda IoT texnologiyalari eng ko'p avtomatlashtirish (30%) va monitoring (25%) jarayonlarida tatbiq etilmoqda. Bu esa sanoat tizimlarining raqamli transformatsiyaga yuz tutayotganini, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda inson omilini kamaytirish orqali aniqlik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilayotganini ko'rsatadi. Sifat nazorati (20%) va resurslardan samarali foydalanish (15%) bo'yicha

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi prezidentining "«Raqamli O'zbekiston - 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga 1-ilova "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi.

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi

ko'rsatkichlar ham ushbu texnologiyalar raqamli nazorat va tejoychanlik vositasi sifatida qo'llanilayotganini bildiradi. Ta'minot zanjiri boshqaruvida esa IoT nisbatan kamroq (10%) ulushga ega bo'lib, bu sohaga texnologik yechimlarning joriy etilishi bosqichma-bosqich kechayotganini anglatadi. Umuman olganda, grafik ma'lumotlari sanoatning innovatsion rivojlanishida IoT texnologiyalarining muhim rol o'ynayotganini isbotlaydi.

Kompyuterlar, sensorlar va tarmoqlarni birlashtirib qurilmalarni kuzatish va boshqarish konsepsiyasi o'nlab yillar davomida mavjud bo'lgan bo'lsa-da, so'nggi yillarda asosiy texnologik yutuqlar va bozor tendensiyalarining uyg'unlashuvi "Internet narsalari" (IoT) kontsepsiyasini yangi iqtisodiy bosqichga olib chiqmoqda.

IoT texnologiyalari nafaqat texnik rivojlanishni, balki global va milliy iqtisodiyotlarda raqamli transformatsiyani chuqurlashtirmoqda. Ushbu texnologiyalar to'liq o'zaro bog'langan "aqlli" tizimlarni yaratish orqali sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, sog'liqni saqlash va xizmat ko'rsatish sohalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bunday sharoitda obyektlar va atrof-muhit, obyektlar va insonlar o'rtasidagi aloqalar iqtisodiy jarayonlarning yaxlit va doimiy ravishda bog'langan tarmoq shaklida shakllanishiga olib kelmoqda. Internet narsalarining barcha qurilmalarni global tarmoqqa ulash orqali har bir iqtisodiy subyekt va korxona faoliyatini raqamlashtirish ehtimoli, "onlayn" iqtisodiyot konsepsiyasini tubdan o'zgartirib, raqobatbardoshlik va innovatsion salohiyatni oshirish imkonini beradi.

Internet Society (Internet Jamiyati) ta'kidlaganidek, Internet narsalari texnologiyalari insonlar va tashkilotlarning shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatlarini tarmoqli texnologiyalar orqali o'zaro bog'liq holda rivojlantirish tendensiyasini anglatadi. IoT texnologiyalaridan maksimal iqtisodiy foyda olish va ularning keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan iqtisodiy xavflarni kamaytirish uchun, ushbu texnologiyalar imkoniyatlarini va tahdidlarini bir-biriga qarshi qo'yish o'rniga, ularni chuqur o'rganish, xolis muloqot olib borish va turli manfaatdor tomonlar o'rtasida samarali hamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston kabi davlatlar uchun IoT texnologiyalarining to'g'ri joriy etilishi iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirish, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va umumiy raqamli transformatsiyani jadallashtirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulloev, A. J. (2023). THE ROLE AND IMPORTANCE OF STRATEGIC PLANNING IN MARKETING.
2. Abdullayeva, H. N., & Sardor, M. (2024). RAQAMLASHTIRISH-MAMLAKAT TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS, 3(27), 113-121.
3. Abdullayeva, H. (2024). KORXONA FAOLIYATIDA INNOVATION MARKETINGDAN FOYDALANISH. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 49(49).

4. Axrorovna, B. M. (2022). The Importance of Digitizing the Tax System. *European Journal Of Business Startups And Open Society*, 2(11), 1-5.
5. Giyazova, N.B. (2024). INCREAZING THE EFFICIENCY OF WASTE RECYCLING IN THE ECONOMY OF OUR COUNTRY. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 3(34), 455-461.
6. Giyazova, N.B., & Sh.B.S. (2024). ZAMONAVIY RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI MUAMMOLAR VA CHORA-TADBIRLAR. *Science and innovation*, 3(Special Issue 42), 482-489.
7. Shukhratovna, U. M., & Bayazovna, G. N. (2025). FOREIGN EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF MOBILE INTERNET.INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM,6(49), 250-256.
8. Таирова, М. М., & Зойитов, Д. (2024). ЗНАЧЕНИЕ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ. *Science and innovation*, 3(Special Issue 42), 371-376.
9. Таирова, М. М., & Рахматуллаева, Ф. М. (2015). Условия формирования инновационной экономики. *Наука 21 века: вопросы, гипотезы, ответы*, (1), 115-118.
10. Hakimovna, U. M., & Muhammedrisaevna, T. M. S. (2022). The role of banking and accounting in the development of small business and entrepreneurship. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 11, 136-143.
11. Sayfullayeva, M. (2023). Establishment Of Agritourism Clusters In Uzbekistan Based On The Principles Of Sustainable Tourism. *Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz)*, 35(35).
12. Raxmatullayeva, F. M. (2024). MINTAQALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI. *Indexing*, 1(1).
13. Raxmatullayeva, F. M., & Shaxzod, J. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNING RESURLAR ISTE'MOLIGA TA'SIRI. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 3(34), 496-502.
14. Mubinovna, R. F. (2025). RAQAMLI IQTISODIYOTDA PLATFORMALAR AHAMIYATI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 3(30), 220-225.
15. Rasul o'g'li, K. U., & Bayazovna, G. N. (2025). KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ROL. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 4(37), 342-348.
16. Aliyor o'g'li, X. S., & Bayazovna, G. N. (2025). KIBERXAVFSIZLIK–RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHINING MUHIM OMILI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 3(31), 113-117.
17. Shuxratovich, T. B., & Bayazovna, G. N. (2025). INSON KAPITALINING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI O'RN. INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024, 4(38), 187-191.

18. Shokirjon o'g'li, J. S., & Bayazovna, G. N. (2025). RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA EKOLOGIK BARQARORLIK: BLOKCHEYNNING YASHIL IQTISODIYOTDAGI ROLI. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 6(50), 418-425.
19. Ramz o'g'li, S. D., & Bayazovna, G. N. (2025). RAQAMLI VALYUTA VA UNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 3(31), 130-135.
20. Rustam o'g'li, R. J., & Bayazovna, G. N. (2025). MOBIL TO'LOVLAR VA ULARNING IQTISODIYOTDAGI AHAMIYATI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 3(30), 193-197.
21. Giyazova, N. B., & Azimxon ogli, Q. S. (2024). GLOBALLASHUV SHAROITIDA ENERGIYA RESURSLARIDAN OQILONA FOYDALANISH. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 3(29), 159-163.
22. Giyazova, N. B., & Dildora, I. (2024). YASHIL IQTISODIYOT VA UNING KELAJAKDAGI ISTIQBOLLARI. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 3(29), 213-217.
23. Bayazovna, G. N., & Ayubovich, X. A. L. (2024). THE CONCEPT OF FINANCE AND THE STAGES OF ITS FORMATION. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (7), 673-679.
24. Bayazovna, G. N. (2024). GEOMARKETINGNING RESTORAN BIZNESIGA TADBIQ ETILISHINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 3(34), 484-490.
25. Giyazova, N. (2023). The share of world countries in the textile industry and the importance of marketing in its development. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 27, 27.
26. Xalqaro Ma'lumotlar Korporatsiyasi (IDC). Jahon bo'yicha IoT xarajatlari bo'yicha qo'llanma 2022.
27. O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
28. Research and Markets. (2024). Aqlli qishloq xo'jaligi bozori – o'sish, tendensiyalar va 2023-2028 yillar prognozi.
29. PwC (PricewaterhouseCoopers). (2022). Aqlli qishloq xo'jaligi va ulangan dehqonchilikdagi yangi tendensiyalar.
30. Jahon Iqtisodiy Forumi (WEF). (2022). Sanoatdagi IoT qiymatini ochish.
31. Statista Research Department. (2024). O'zbekistonda Internet narsalari (IoT) bozorining prognozi. <https://Statista.com> sayti
32. Jahon Banki guruhi. (2023). O'zbekiston: Raqamli iqtisodiyot sharhi. <https://Worldbank.org> sayti.